



TURKIYA "YUMSHOQ KUCH" SIYOSATINING MARKAZIY OSIYO
DAVLATLARI BILAN STRATEGIK SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI
VA MEXANIZMLARI

Norboyeva Zarinabonu Ikromjon qizi

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy
jarayonlar magistranti*

Anotatsiya: Mazkur maqolada Turkiya Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarida "Yumshoq kuch" turli omillari mintaqaviy siyosiy strategiyasi yoritilgan. "Yumshoq kuch" konsepsiyasi Jozef Nay nazariyasiga ko'ra izohlanib, madaniy diplomatiya, ta'lim, iqtisodiy hamkorlik, va turkiy birlik g'oyalari orqali ta'sir o'tkazish usullari tahlil qilingan. Shuningdek maqolada TIKa, TURKSOY, Turkiy davlatlar tashkiloti kabi institutlarning roli hamda Turkiyaning Markaziy Osiyoda ta'sir doirasini kengaytirishdagi faoliyatini har bir davlat alohida misolida alohida ochib beriladi. Maqolada Turkiyaning Markaziy Osiyoda barqaror hamkorlik va mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan strategik sheriklikni rivojlanib borish evolyutsiyasini yoritishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Yumshoq kuch. Markaziy Osiyo. TIKa. TURKSOY. O'zbekiston. Qozog'iston. Qirg'iziston. Tojikiston, Turkmaniston.

Markaziy Osiyo va Turkiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlar qardosh xalqlarning ming yillik tarixiy, madaniy, til va din yaqinligiga asoslanadi. Mil. av II asrdan — mil. III asrgacha bo'lgan davrda turklar Xun xoqonligi tarkibida bo'lgani sababli Xitoy manbalarida shyunnu, hunnudeb ham atalgan. Mazkur xoqonlik yemirilgandan keyingi 300 yilga yaqin davr davomida xitoylar turklarni tiyekli deb atashgan. Milodiy VI–VIII asrlarda mavjud bo'lgan Turk xoqonligi davrida Markaziy Osiyo turkiy sivilizatsiyaning asosiy markazlaridan biri bo'lgan. Keyinchalik o'g'uz, qarluq, qipchoq kabi turkiy qabilalarning ko'chishlari natijasida turkiy xalqlar Yaqin Sharq va Anatoliya hududlariga tarqalgan.

Xitoy manbalariga ko'ra, IX asrda tilga olinadigan turk qabilalari 58 ta nom bilan ajratilgan. XI asrda Saljuqiylar davlati tashkil topishi Turkiya va Markaziy Osiyo tarixiy bog'liqligining muhim bosqichi hisoblanadi. Saljuqiylar asl kelib chiqishi jihatidan Markaziy Osiyodan chiqqan o'g'uz turklariga mansub edi. Ularning Anatoliyaga kirib kelishi keyinchalik zamonaviy Turkiya davlatining shakllanishi uchun zamin yaratgan. Tarixga nazar tashlansa, so'nggi ikki ming yil davomida turkiy xalqlar asos solgan Xun imperiyasi, G'arbiy va Sharqiy Turk xoqonliklari, Xazar xoqonligi, Qarluqlar davlati, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G'aznaviylar, Qoraxitoylar, Xorazmshoxlar, Usmoniylar, Temuriylar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar, Qo'ng'irotlar va Boburiylar singari o'nlab davlat va imperiyalar sayyoramizning juda katta qismida hukmronlik qilganlar.⁴⁹ Turkiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari turli madaniyat va tamaddunlarning bir-biri bilan tarixiy

⁴⁹ Гумилев Л.Н. "Этносфера: история людей и история природы". М: Астрель, 2010. – С. 178.



muloqoti bo'lgan hamda savdo yo'llari kesishgan markazlari hisoblanadi. Bu borada 2018-yilgi davlat tashrifi chog'ida Turkiya Prezidenti Rajab Toyyib Erdogan tomonidan Oliy Majlis parlamenti bilan uchrashuvida aytilgan "Ota yurtimiz" jumlasini, mamlakatlar tarixan bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligini isbotlaydi.

Yumshoq kuch tushunchasi haqida

XX asrning oxiri va XXI asr boshlariga kelib xalqaro tartibda chuqur o'zgarishlar yuz berdi: globallashuv, axborot inqilobi, transmilliy aktorlar sonining ortishi va "yumshoq" jozibadorlik resurslarining ahamiyati kuchaydi. 1990-yilda amerikalik siyosatshunos Joseph S. Nye ushbu yangi sharoitda "yumshoq kuch" (soft power) tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi va u qisqa vaqt ichida xalqaro munosabatlar nazariyasining markaziy konseptlaridan biriga aylandi.⁵⁰ Keyinchalik 2004 yilda muallif "Yumshoq kuch: jahon siyosatida muvaffaqiyatga erishish vositalari" nomli kitobida va boshqa ilmiy maqolalarida davlatlarning tashqi siyosatida "Yumshoq kuch" omilini konsepsiya sifatida batafsil izohlagan. Jozef Nye ta'rifiga ko'ra, "Yumshoq kuch" tushunchasi mohiyati davlatlarning o'zaro hamkorlik va ijobiy qiyofasini shakllantirish orqali boshqa davlatlarga ta'sir etish hamda ko'zlangan natijalarga erishish qobiliyatini mo'ljallaydigan tashqi siyosiy usullar va vositalar majmui hisoblanadi. Agar "Qattiq kuch" bir davlatning ikkinchi davlatga nisbatan harbiy va iqtisodiy qudrati bilan kuch ishlatishi bo'lsa, "Yumshoq kuch" esa uning madaniy va siyosiy maqsadlarining jozibadorligidan yuzaga keladi. Xususan, "Yumshoq kuch" ning asosiy vositalari sifatida davlat tilining nufuzini oshirish, tarixiy madaniyatini targ'ib qilish, oliy ta'lim muassasalariga xorijiy talabalar va tadqiqotchilarni jalb qilish hamda turli grant dasturlarini taqdim etish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, milliy mahsulotlarning xalqaro darajadagi brendini yuksaltirish, hamkor mamlakatlar iqtisodiyotiga investitsiyalar kiritish va boshqa jihatlarni qayd etish mumkin.

Turkiyaning Markaziy Osiyodagi "yumshoq kuch" siyosati mintaqaning barcha davlatlarida turlicha shaklda ekanini alohida ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar mustaqillik e'lon qilingan paytdan boshlab izchil rivojlanib, bir necha muhim bosqichdan o'tdi. O'zbekiston mustaqilligini dastlab tan olgan davlat bu Turkiyadir. 1992-yil 4-fevralda Toshkentda Turkiya Respublikasining elchixonasi rasman ochildi, bu O'zbekistondagi birinchi xorijiy diplomatik vakolatxonalardan biri edi. Shu yilning mart oyida esa O'zbekistonning Anqaradagi elchixonasi faoliyat boshladi. Elchixonalar ochilishi bilan birga, konsullik xizmatlari yo'lga qo'yildi, 1992-yil iyun oyida Istanbulda O'zbekiston Bosh konsulligi ochildi.⁵¹ 1992-yil oxiriga kelib Turkiya O'zbekistonga 500 nafar talaba uchun stipendiya ajratdi, bu ta'lim hamkorligining dastlabki qadami bo'ldi.⁵² 1991-yil O'zbekistonda dastlab turk filologiyasi kafedrasini tashkil etilishi mintaqadagi dastlabki ta'lim muassasi ham sanaladi. Ikki mamlakat o'rtasida 1993-1999 yillar strategik sheriklikning eng oltin davri bo'lgan desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu yillar oralig'ida ikki davlat rahbarlari o'rtasida bir necha bor davlat tashriflari amalga oshirildi. 1993-yil iyul oyida "Madaniy aloqalar to'g'risidagi hamkorlik bitimi" imzolandi. Ushbu bitim orqali O'zbekistonda turk

⁵⁰ Nye, J. S. (1990). Bound to Lead: The Changing Nature of American Power. New York: Basic Books. – B. 188.

⁵¹ O'ZBEKISTON VA TURKIYA O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI Akbarov Bunyodjon Ilyosjon o'g'li. 20.12.2025

⁵² Turkiya "Buyuk Talaba Loyihasi" (Grand Student Project) doirasida O'zbekiston uchun 500 nafar talabaga stipendiya ajratilgan. TIK 1992–2022 yillar faoliyat hisoboti (30-yillik maxsus nashr). <https://tika.gov.tr/en/publications/reports/>



ta'lim markazlari ochildi, turk tili kurslari tashkil etildi. 1994-yil Turkiya O'zbekistonga 1000 nafar talaba uchun stipendiya ajratdi va Toshkentda turk litseyi ochildi⁵³. 1996-yil 8-may "Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma" imzolandi. Ushbu yillar oralig'ida 20 dan ortiq bitim imzolandi, savdo 5 baravar oshdi, madaniy aloqalar chuqurlashdi. Biroq, siyosiy kelishmovchiliklar (ayniqsa, diniy ekstremizmga qarshi kurash masalalari) bu yutuqlarga ta'sir ko'rsatdi va uchinchi bosqich (2000-2016) turg'unlik davri boshlandi. O'zbekiston hukumati 1999-yilgi terror voqealarini Turkiyada joylashgan "Fethullah Gülen harakati" (keyinchalik FETÖ deb e'lon qilingan) bilan bog'ladi. Natijada, 2000-yilda O'zbekiston Turkiyadagi barcha Gülen maktablarini yopdi va o'qituvchilarni mamlakatdan chiqarib yubordi. 2002-yilda savdo hajmi 1997 yildagi 350 million dollardan 120 million dollarga tushdi. Rasmiy tashriflarning to'xtashi ham ta'sir qiluvchi omil bo'ldi. 2017-yil O'zbekiston prezidenti Sh.Mirziyoyev muzlab qolgan munosabatlarni yanada jonlantirdi. 2021-yil O'zbekiston Turkiy davlat kengashiga qo'shilishi bilan tashkilot Turkiy davlatlar tashkilotiga o'zgartirildi. 2024 yil ikki mamlakat orasida savdo hajmi 2,93 milliard AQSH dollariga yetgan bo'lsa, 2025 yilning birinchi yarmida ikki davlat o'rtasidagi savdo aylanmasi 1,3 mlrd dollardan oshdi. Turkiya sarmoyalari esa 2017-yilga nisbatan 70 baravarga o'sdi.⁵⁴

Qozog'iston va Turkiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yil 2-mart kuni Olmaotada "Diplomatik munosabatlar o'rnatish va viza imtiyozlari to'g'risidagi bitim" imzolanishi bilan rasman boshlandi. O'sha yilning aprel-may oylarida Anqara va Olmaotada elchixonalar faoliyat boshladi va ikki tomonlama hamkorlikning institutsional asoslari shakllantirildi. Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar, ayniqsa, 2009-yildan keyin yangi bosqichga ko'tarilib, "Strategik sheriklik to'g'risidagi bitim" imzolanishi bilan yanada mustahkamlandi. Turkiyaning Markaziy Osiyodagi "yumshoq kuch" siyosatida Qozog'iston alohida o'rin egallaydi. Bu jarayonda 1992-yilda Turkiya tashabbusi bilan tashkil etilgan Turkiya Hamkorlik va Muvofiqlashtirish Agentligi (TIKA) muhim institutsional vosita sifatida namoyon bo'ldi. TIKA iqtisodiy, madaniy va texnik hamkorlikni rivojlantirish, bozor islohotlarini qo'llab-quvvatlash hamda turkiy davlatlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga ko'maklashish orqali ikki mamlakat munosabatlarini chuqurlashtirishga xizmat qildi. Bundan tashqari, Qozog'iston va Turkiya TURKSOY, TURKPA, Turkiy madaniyat va meros jamg'armasi hamda Turkiy biznes kengashi kabi turkiy integratsiyani qo'llab-quvvatlovchi mintaqaviy institutlar doirasida ham faol hamkorlik olib bormoqda.⁵⁵ Ta'lim va ilm-fan sohasidagi hamkorlik Turkiyaning Qozog'istondagi "yumshoq kuch" siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 1991-yilda Turkiston shahrida Xo'ja Ahmad Yassaviy nomidagi Xalqaro Qozoq-Turk universiteti, 1996-yilda esa Kaskelen shahrida Sulaymon Demirel universiteti tashkil etilishi ikki davlat o'rtasidagi akademik hamkorlikning muhim natijalaridan bo'ldi.⁵⁶ Shuningdek, Yunus Emre instituti 2010-yilda Astana shahrida faoliyat boshlagan

⁵³ O'zbekistondagi turk ta'lim markazlari va turk tili kurslarining rivoji. The Diplomat nashri. <https://thediplomat.com>

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika agentligi. <https://stat.uz/uz/matbuot/markazi/qo-mitayangiliklar/59511>

⁵⁵ Aslan, D. H., & Bozyigit, D. (2014). Turkey-Kazakhstan relations: an overview of mutual relations since the collapse of the soviet union. Kwartalnik Naukowy Uczelni Wistula, (4 (42), 133-145.

⁵⁶ Сотрудничество Республики Казахстан с Турецкой Республикой. 04 января 2023. www.gov.kz



bo'lib, u turk tilini targ'ib qilish va madaniy almashinuvni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Institut tashabbusi bilan Qozog'iston universitetlarida turk tili klublari tashkil etilgan bo'lib, xususan, 2018-yilda Nazarbayev universitetidagi turk tili kurslarida tahsil oluvchilar soni 168 nafarga yetgan. Iqtisodiy hamkorlik ham ikki davlat munosabatlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.⁵⁷ Global geosiyosiy va geoiqtisodiy beqarorliklarga qaramay, o'zaro savdo hajmi izchil o'sib bormoqda: 2024-yilda ikki tomonlama savdo hajmi 5 milliard AQSH dollariga yetgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar–may oylarida bu ko'rsatkich 1,9 milliard dollardan oshdi. Turkiya Qozog'istonning yirik investorlaridan biri bo'lib, 2005–2024-yillar davomida mamlakat iqtisodiyotiga 5,2 milliard dollar sarmoya kiritgan. Hozirgi kunda esa Qozog'istonda 3,5 mingdan ortiq turk kompaniyalari faoliyat yuritmoqda⁵⁸.

Qirg'iziston va Turkiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1991-yilda Qirg'iziston mustaqilligini Turkiya tomonidan birinchi bo'lib tan olinishi bilan boshlandi. Ikki davlat o'rtasida 1992-yil 29-yanvarda diplomatik aloqalar o'rnatilib, shu yilning o'zida Bishkek va Anqarada elchixonalar faoliyat boshladi. 2011-yildan boshlab munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko'tarilib, siyosiy, iqtisodiy, ta'lim, madaniyat, transport, sog'liqni saqlash va xavfsizlik sohalarida ko'p qirrali hamkorlik rivojlana boshladi. Ikki tomonlama munosabatlarning huquqiy So'nggi yillarda davlat rahbarlari, parlament vakillari va tashqi ishlar vazirlari darajasidagi muntazam tashriflar ikki tomonlama aloqalarning barqaror rivojlanib borayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, 2018–2019-yillarda prezidentlar va yuqori martabali rasmiylar o'rtasidagi uchrashuvlar Turkiy Kengash, TURKPA va boshqa mintaqaviy platformalar doirasida ham davom etdi. Turkiyaning Markaziy Osiyodagi "yumshoq kuch" siyosatida Qirg'iziston ta'lim sohasidagi eng faol va keng qamrovli hamkor davlatlardan biri sifatida ajralib turadi. 1990-yillardan boshlab mamlakatda turk ta'lim muassasalari faol rivojlandi. "Sebat" ta'lim assotsiatsiyasi tomonidan xalqaro litseylar, maktablar, Ala-Too xalqaro universiteti hamda boshqa ta'lim muassasalari tashkil etildi. Keyinchalik ushbu tarmoq 2017-yildan boshlab "Sapat" nomi ostida faoliyatini davom ettirdi.⁵⁹ Ta'lim diplomatiyasining muhim natijalaridan biri sifatida 1995-yilda Bishkek shahrida tashkil etilgan Qirg'iz-Turk "Manas" universiteti alohida ahamiyat kasb etadi.⁶⁰ Mazkur universitet ikki davlat o'rtasidagi ilmiy-akademik hamkorlikning eng muhim institutlaridan biri bo'lib, turkiy dunyo miqyosida malakali mutaxassislar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va madaniy almashinuvni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda Turkiyaning ta'lim sohasidagi ta'siri yangi institutlar orqali ham kengaymoqda. Xususan, 2021-yilda Bishkek shahrida Turkiyaning "Maarif" ta'lim jamg'armasi faoliyat boshladi. Jamg'arma doirasida maktablar ochish hamda professional litseylar tarmog'ini kengaytirish masalalari ikki davlat vakillari o'rtasidagi muzokaralarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.⁶¹ Shunday qilib, Qirg'iziston misolida Turkiyaning "yumshoq kuch" siyosati, avvalo, ta'lim, madaniy diplomatiya va

⁵⁷TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDA TURKIYA VA QOZOG'ISTONNING STRATEGIK HAMKORLIGI.Sh.Murtazayeva

⁵⁸ Daily Sabah with Agencies. (2025, July 29). Türkiye, Kazakhstan seek to set new cooperation goals. Daily Sabah <https://www.dailysabah.com/politics/turkiye-kazakhstan-seek-to-set-new-cooperation-goals/news>

⁵⁹ Официальный сайт учреждений образования «Сапат». www.sapat.edu.kg

⁶⁰ 1 Грозин А. Политика Турции в постсоветской Азии: подходы, институты, перспективы // Политология 2 (30) 2021. – С. 35

⁶¹ . Бишкек договаривается с Анкарой об открытии новых турецких лицеев. 06.08.2023. www.ng.ru



institutsional hamkorlik vositalari orqali namoyon bo'lib, Markaziy Osiyodagi eng faol va tizimli modellardan biri sifatida shakllangan.

Turkiya Respublikasi 1991-yil 27-oktabrda mustaqillikka erishgan Turkmanistonni birinchi bo'lib tan olgan davlatlardan biri hisoblanadi. Ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yilda o'rnatilgan bo'lib, Anqara va Ashxobod shaharlarida elchixonalar faoliyat boshlagan. Tarixiy, etnik, til va madaniy yaqinlik Turkiya–Turkmaniston munosabatlarining asosiy tayanchi sifatida namoyon bo'lgan. Ta'lim sohasi Turkiya o'z soft powerini Turkmanistonga izchilik bilan amalga oshirib kelmoqda. Turkmaniston uchun Turkiya oliy ta'lim va kadrlar tayyorlash bo'yicha eng yaqin hamkor davlatlardan biri hisoblanadi.

Turkmanistonlik minglab talabalar Turkiya Respublikasining yetakchi oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat, magistratura va doktorantura bosqichlarida tahsil olib kelmoqda. Bu jarayon ikki davlat o'rtasidagi inson kapitali, ilmiy hamkorlik va akademik integratsiyani kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ta'lim sohasidagi hamkorlikning muhim namunalaridan biri 1994–2016-yillarda Ashxobodda faoliyat yuritgan Xalqaro Turkman–Turk universiteti bo'ldi. Universitet ikki mamlakat o'rtasidagi ilmiy va madaniy hamkorlikning muhim platformalaridan biri sifatida xizmat qildi. TİKA tomonidan Turkmanistonda ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, madaniy meros va ijtimoiy infratuzilma yo'nalishlarida turli loyihalar amalga oshirilgan.

Shuningdek, turkiy dunyo integratsiyasi doirasidagi madaniy aloqalar ham Turkiya–Turkmaniston munosabatlarining muhim elementi bo'lib qolmoqda. 1991-1999 yillar ikki mamlakat o'rtasida diplomatik aloqalar yo'lga qo'yilish davri hisoblanadi. 2000–2007-yillarda Ahmet Nejdettin Sezer prezidentligi davrida Turkiyaning Markaziy Osiyoga bo'lgan siyosiy e'tibori nisbatan pasaydi.⁶² Prezident Rajab Toyyib Erdo'g'an prezident sifatida rasmiy tashrifini 2014-yil 6–7-noyabr kunlari Turkmanistonga amalga oshirdi. Ushbu tashrif davomida savdo, energetika, transport va iqtisodiy hamkorlik masalalari muhokama qilindi. Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov esa 2015-yilda Turkiyaga bir necha bor tashrif buyurdi. 2015-yil 12-dekabr kuni Prezident Erdo'g'an Ashxobodda Turkmanistonning betarafligining 20 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan xalqaro konferensiyada ishtirok etdi. Keyinchalik, Turkmanistonning ulkan tabiiy gaz zaxiralari Turkiyaning energetik xavfsizlik siyosatida muhim ahamiyatga ega. Turkman gazini Kaspiy dengizi orqali Turkiya va Yevropa bozorlariga yetkazish masalasi muntazam ravishda muzokaralar kun tartibida bo'lib kelmoqda.

Transport sohasida esa Turkiya delegatsiyasi 2018-yil 2-may kuni Turkmanboshi xalqaro porti ochilish marosimida va 3-may kuni bo'lib o'tgan ECO transport vazirlari yig'ilishida ishtirok etdi.⁶³ Xulosa qilib aytganda, Turkiya va Turkmaniston o'rtasidagi munosabatlar tarixiy-madaniy yaqinlik, ta'lim diplomatiyasi, energetik manfaatlar va siyosiy muloqotga tayangan holda rivojlanmoqda.

Turkiya Tojikiston mustaqilligini 1991-yil 16-dekabrda tan oldi va ikki davlat o'rtasida 1992-yil 29-yanvarda diplomatik aloqalar o'rnatildi. Dushanbedagi elchixona 1992-yil 22-martda, Tojikistonning Anqaradagi elchixonasi esa 1995-yil 16-

⁶² <https://dergipark.org.tr/tr/pub/sobiadsbd/article/135629>

⁶³ <https://www.mfa.gov.tr/turkiye-turkmenistan-siyasi-iliskileri.tr.mfa>



oktabrda ochildi. Turkiya elchixonasi Tojikistonda 1992–1997-yillardagi fuqarolar urushi davrida ham o'z faoliyatini to'xtatmagan holda davom ettirdi, bu esa Anqara va Dushanbe o'rtasidagi ishonchli siyosiy munosabatlarning muhim belgisi sifatida baholanadi. Dastlabki yillarda Turkiya Tojikistonga nisbatan faol tashqi siyosat yuritib, hatto fuqarolar urushi sharoitida ham mamlakatdan chiqib ketmagan kam sonli davlatlardan biri bo'ldi. O'sha davrda Turkiya Prezidenti Sulaymon Demirelning Tojikistonga tashrifi ikki davlat o'rtasidagi do'stona munosabatlarning ramziy ifodasi bo'lib, Turkiyaning Tojikistonga nisbatan siyosiy qo'llab-quvvatlashini namoyon etdi. Turkiya–Tojikiston munosabatlari asosan siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanib bordi. Siyosiy sohada ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar 2012-yil 17–18-dekabr kunlari Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmonning Turkiyaga rasmiy tashrifi davomida tashkil etilgan.

Hamkorlik kengashi orqali institutsional tus oldi. Ushbu tashrif ikki davlat diplomatik munosabatlarining 20 yilligiga to'g'ri kelib, hamkorlikning huquqiy asoslarini yanada mustahkamladi. Yuqori darajadagi siyosiy muloqot keyingi yillarda ham davom etdi. Ikki mamlakat o'rtasida parlament va hukumat darajasidagi tashriflar ham izchil davom etib kelmoqda: 2025-yilda Turkiya Buyuk Millat Majlisi raisi Numan Kurtulmush, Mehnat va ijtimoiy ta'minot vaziri Vedat Işıkhan hamda Oliy saylov kengashi raisi Ahmet Yener Tojikistonga rasmiy tashriflar amalga oshirgan. Iqtisodiy soha ham bugungi kunda soft power ning ko'zga ko'rinmas yashirin quroliga aylanib bormoqda. Iqtisodiy sohada ham ikki davlat o'rtasidagi aloqalar barqaror rivojlanmoqda. Turkiya Savdo vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi 609 million AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 1,7 foizga kamaygan.

Shu jumladan, Turkiyaning Tojikistonga eksporti 416,5 million dollarga yetib 11 foizga oshgan bo'lsa, Tojikistondan import 193,3 million dollarni tashkil etib 21 foizga kamaygan. Iqtisodiy hamkorlikda turk xususiy sektori, ayniqsa qurilish va xizmat ko'rsatish sohalari muhim rol o'ynamoqda. Turkiya–Tojikiston munosabatlarida yumshoq kuchning eng muhim komponentlaridan biri madaniy yaqinlik va tarixiy meros hisoblanadi. 2018-yilda Dushanbeda Rumiy xotirasiga bag'ishlangan xalqaro simpoziumning tashkil etilishi yumshoq kuch siyosatining muhim namunasidir. Turkiya tomonidan amalga oshirilgan "Buyuk talabalar loyihasi" doirasida ko'plab tojikistonlik yoshlar Turkiya universitetlarida tahsil olib, keyinchalik o'z mamlakatlariga qaytgan. Bu jarayon nafaqat akademik bilim almashinuvi, balki madaniy qadriyatlar va ijtimoiy aloqalarning mustahkamlanishiga ham xizmat qilgan.

Shuningdek, Dushanbedagi Turk tili o'qitish markazi (TÖMER) til diplomatiyasi vositasi sifatida faoliyat yuritib, turk tilining mintaqada tarqalishiga hissa qo'shmoqda. Bundan tashqari, Turkiyaning TİKA (Turkiya Hamkorlik va Muvofiqlashtirish Agentligi) orqali amalga oshirilayotgan loyihalari ham yumshoq kuch siyosatining muhim qismi hisoblanadi. TİKA Dushanbeda ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy infratuzilma va madaniy merosni saqlash yo'nalishlarida bir qator loyihalarni amalga oshirmoqda.



Xulosa. Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan olib borayotgan "yumshoq kuch" siyosati mintaqadagi strategik sheriklik munoasabatlarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Turkiyaning Markaziy Osiyodagi "yumshoq kuch" siyosati barcha davlatlarda bir xil shaklda namoyon bo'lmaydi, balki har bir mamlakatning ichki siyosiy sharoiti, geosiyosiy ustuvorliklari va tashqi siyosiy manfaatlariga mos ravishda turlicha ko'rinish oladi. O'zbekiston bilan munosabatlarda strategik sheriklik, savdo-iqtisodiy integratsiya va siyosiy muloqot muhim o'rin egallasa, Qozog'istonda ta'lim, ilm-fan va turkiy integratsiya institutlari orqali hamkorlik chuqurlashgan.

Qirg'izistonda ta'lim diplomatiyasi va universitetlar tarmog'i yetakchi vosita bo'lib xizmat qilayotgan bo'lsa, Turkmaniston bilan aloqalarda energetika, tarixiy yaqinlik va akademik hamkorlik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tojikiston misolida esa madaniy diplomatiya, tarixiy-ma'naviy meros va rivojlanish loyihalari asosiy ta'sir mexanizmlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, TİKA, TURKSOY, Turkiy davlatlar tashkiloti, Yunus Emre instituti, Maarif jamg'armasi kabi institutlar Turkiyaning mintaqadagi "yumshoq kuch" siyosatini institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlovchi muhim mexanizmlari hisoblanadi.

Mazkur institutlar orqali amalga oshirilayotgan ta'lim, madaniyat, ilm-fan, gumanitar yordam va iqtisodiy hamkorlik loyihalari Turkiyaning Markaziy Osiyodagi ijobiy imijini shakllantirish, uzoq muddatli strategik sheriklikni mustahkamlash hamda mintaqaviy integratsiya jarayonlarini rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, Turkiyaning Markaziy Osiyodagi "yumshoq kuch" siyosati tarixiy-madaniy yaqinlik, umumiy meros va zamonaviy diplomatik vositalar uyg'unligi asosida shakllanib, mintaqadagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikning yangi modelini rivojlantirishda muhim omil bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nye, J. S. (1990). Bound to Lead: The Changing Nature of American Power. New York: Basic Books. – B. 188.
2. O'ZBEKISTON VA TURKIYA O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI Akbarov Bunyodjon Ilyosjon o'g'li. 20.12.2025
3. Turkiya "Buyuk Talaba Loyihasi" (Grand Student Project) doirasida O'zbekiston uchun 500 nafar talabaga stipendiya ajratilgan. TİKA 1992–2022 yillar faoliyat hisoboti (30-yillik maxsus nashr). <https://tika.gov.tr/en/publications/reports/>
4. O'zbekistondagi turk ta'lim markazlari va turk tili kurslarining rivoji. The Diplomat nashri. <https://thediplomat.com>
5. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika agentligi. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/59511>
6. Aslan, D. H., & Bozyigit, D. (2014). Turkey-Kazakhstan relations: an overview of mutual relations since the collapse of the soviet union. Kwartalnik Naukowy Uczelni Vistula, (4 (42), 133-145.



- 7.Сотрудничество Республики Казахстан с Турецкой Республикой. 04 января 2023. www.gov.kz
- 8.TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDA TURKIYA VA QOZOG'ISTONNING STRATEGIK HAMKORLIGI.Sh.Murtazayeva
- 9.Daily Sabah with Agencies. (2025, July 29). Türkiye, Kazakhstan seek to set new cooperation goals. Daily Sabah <https://www.dailysabah.com/politics/turkiye-kazakhstan-seek-to-set-new-cooperation-goals/news>
- 10.Официальный сайт учреждений образования «Сапат». www.sapat.edu.kg
11. Грозин А. Политика Турции в постсоветской Азии: подходы, институты, перспективы // Политология 2 (30) 2021. – С. 35
- 12.. Бишкек договаривается с Анкарой об открытии новых турецких лицеев. 06.08.2023. www.ng.ru
<https://dergipark.org.tr/tr/pub/sobiadsbd/article/135629>
- 13.<https://dergipark.org.tr/tr/pub/sobiadsbd/article/135629>
- 14.<https://www.mfa.gov.tr/turkiye-turkmenistan-siyasi-iliskileri.tr.mfa>
- 15.Шарофов Э.У. История Таджикско - Турецкого сотрудничества: 1991-2011 гг. Автореферат дис.канд.наук. Душанбе – 2012. – С. 23